



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqqa boshlagan

№23 (785), 2024-yil 12-dekabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



Yubiley

OLTMISH YILLIK SHONLI YO‘L

“Qizilqum” kon boshqarmasiga qarashli 1-gidrometallurgiya zavodining tashkil topishi Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Uchquduq zaminini hududidan topilgan uran ma‘danini qayta ishlash zarurati mazkur korxonani qurib bitkazib, ishga tushirishni taqozo etardi. Darvoqe, kombinatning ilk obyektlaridan bo‘lgan zavod Qizilqum cho‘li bag‘rida yashirinib yotgan yerosti boyliklarini o‘zlashtirish, hududda yirik sanoat korxonalari va zamonaviy shaharlar barpo etilishining solnomasini boshlab berdi. 1964-yilning 4-dekabr tarix sahifalarida 1-gidrometallurgiya zavodi foydalanishga topshirilgan kun sifatida muhrlandi. Dekabr oyining birinchi haftasida zavod tashkil topganligining 60 yilligi keng nishonlandi.

yilgacha barqaror rivojlantirish dasturida belgilab berilgan vazifalarni bajarish, ulkan marralarni zabt etish yo‘lidagi ulg‘vor ishlarda mardonavor ishtirok etishlariga ishonch bildirdi. Tantanali yig‘ilishda 1-son GMZ kon va texnologik uskunalarni ta‘mirlash sexi elektrgazpayvandchisi Oltin Mustafoyev, 2-texnologik sexi vagon ag‘dargich mashinisti Jobir Elmurodov, “Qizilqum” kon boshqarmasi direktori Avaxxon Ezozonov, zavodning 2-texnologik sexi ustasi Fayyoz Qobi-

Shonli sana munosabati bilan 4-dekabr kuni tushlik paytida zavod oshxonasi hududidagi maydonda korxonada bo‘linmalar, sex va uchastkalari ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari uchun bayram dasturxonini yozildi. Tadbirida kombinat xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi I.Rahmatov yig‘ilganlarni zavodning 60 yilligi munosabati bilan qutladi hamda “Qizilqum” kon boshqarmasi direktori A.Ezozonov bilan birgalikda ishlab chiqarish ilg‘orlaridan bir guruhiga kon boshqarmasining Faxriy yorliqlarini topshirdi.

1-gidrometallurgiya zavodining 60 yilligiga bag‘ishlangan tantana 6-dekabr kuni “Navoiyuran” davlat korxonasi majlislar zalida bo‘lib o‘tdi. Unda dastavval zavodning tarixi va buguni haqidagi videorolik namoyish etildi. Yig‘ilishda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov zavod jamoasini qutlug‘ sana bilan muborakkob etib, korxonaning tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tdi.

1964-yil 4-dekabrda 1-gidrometallurgiya zavodi o‘z faoliyatini boshlagani va unda ilk bor uran mahsuloti qayta ishlangani O‘zbekiston sanoatida yangi sahifa ochdi. O‘sha davrda uranni qayta ishlash bo‘yicha yetarlicha tajriba bo‘lmagan. Lekin, kombinat mutaxassisilari ilgari amaliyotda bo‘lmagan ishga qo‘l urib, barchasini uddalaganlar. Shunday ekan, ularning beqiyos xizmatlari, jasoratli mehnatlari mamnuniyat bilan e‘tirof etishga arziydi.

Zavodda mustaqillik sharofati bilan 1995-yildan boshlab oltin tarkibli ma‘danlarni ham qayta ishlash boshlangan. Bejizga yuksak korxonada kombinat faoliyatining oltin ishlab chiqarish yo‘nalishi uchun ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish, tatbiq etish va sinovdan o‘tkazish uchun sinov maydoni deyilmaydi. Bugun zavodda turli xil murakkab ishlab



chiqarish muammolarini hal qilishga qodir mehnatsevar jamoa shakllangan.

Mustaqillik yillarida zavodda amalga oshirilgan texnik va texnologik yangilanish, modernizatsiyalash samarasida oltin ma‘danlarni qayta ishlash 4,5 baravarga, oltinni yarim tayyor holatida ishlab chiqarish 5 baravarga oshgani ahil jamoaning ulkan yutu‘g‘idir. Ma‘danlarni qayta ishlash quvvatlarini oshirish, kengaytirish, yangi kon va karyerlarni ishga tushirish hisobiga shunday muvaffaqiyatlarga erishilyapti.

Ulkun natijalar, yuqori o‘shish sur‘atlariga erishgan zavod mehnat ahli qo‘lga kiritgan yutuqlarni yanada ko‘paytirish va mustahkamlash maqsadida yangi, yuksak marralar sari intilmoqda.

O‘tgan davrda ko‘plab soha fidoyilari mehnatlari e‘tirof etilib, ulkan davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘ldilar. Keyingi yillarda Avaxxon Ezozonov, Bahridin O‘roqovlar “Do‘stlik”

ordeni, O‘tkam Qudratov, Dmitriy Gorbachyov, To‘lqin Ergashovlar “Shuhrat” medali bilan taqdirlanilar.

Bugun ulkan kombinatning ko‘pming kishilik jamoasi safiga yangicha fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalarni boshqara oladigan, eng muhimi, qalbidan o‘z yurti ravnaqi uchun daxldorlik hissi barqaror, to‘la ma‘noda vatanparvar yoshlar, mahalliy kadrlar, sohaning yangi, istiqbolli sulolasi kirib kelyapti. Ular orasida 1-gidrometallurgiya zavodining ham vakillari, umidli qora ko‘zlarimiz borligini ta‘kidlash kerak. Bugun kombinat maktabida shakllangan Shuhrat Qodirov, Nurali Rahmonov, Sherzod Saidov, Madamin Jo‘rayev, Otobek Farmonov, Elyos Bozov, Maqsud Adizov kabi yoshlar shular jumlasidandir.

Quvondiq Sanaqulovich o‘z so‘zida zavod jamoasi hamisha bo‘lganidek, bundan keyin ham kombinatimizni 2030

lov, kon va texnologik uskunalarini ta‘mirlash sexi chilangar-ta‘mirlovchisi Xasan Ganeyev, texnologik laboratoriya muhandis-texnologiy Oygul Daminova, 1-texnologik sexi apparatchi-gidrometallurgiya Shavkatjon Hamroyev, 2-texnologik sexi ekskavator mashinisti Sulaymon Menzotov, sexining chilangar-ta‘mirlovchisi Farhod Hojiyev, sex tegirmon mashinisti Salim Ro‘ziyev va boshqalar “NKMK faxriysi unvoni”, turli darajadagi “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishonlari, Navoiy kon-metallurgiya kombinati Faxriy yorliqlari bilan mukofotlandilar.

“Farhod” madaniyat saroyi badiiy jamoalarining katta dasturdagi chiqishlari ishtirokchilarga bayramona kayfiyat bag‘ishladi. Yubiley shodiyonalari Navoiy shahridagi “Tinchi” tantanalari maskanida davom etdi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

Inson qadri uchun

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda kasaba uyushmalarining o‘rni va mavqei o‘sib bormoqda. Bunga esa ishchi-xizmatchilarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, kasaba uyushmasi a‘zolarining mehnatga oid huquq va manfaatlarini ta‘minlash, xodimlarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ish va dam olish sharoitlarini yaxshilash, ishlash jarayonida hayoti uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan holatlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tufayli erishilmoqda.

MEHNAT AHLIGA G‘AMXO‘RLIK — E‘TIBORIMIZDA

Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tizimida 80 ming nafardan ortiq a‘zoni jamlagan yettita Birlashgan kasaba uyushma qo‘mitalari va ularning tarkibidagi 150 ta kasaba uyushma qo‘mitasi faollari ham ana shunday xayriy ishlarni ro‘yobga chiqarishga safarbar etilganlar. Kombinats kasaba uyushma qo‘mitalari ishchi-xizmatchilar, ularning oilasi, faxriylarimiz huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda asosiy hujjat hisoblangan Jamoa shartnomasiga tayanib ish ko‘rmogdalar. Jamoa shartnomasida kasaba uyushmalarining mehnatkashlarning huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq faoliyatiga doir masalalar qamrab olingan.

Yil yakunlanayotganini nazarda tutib, amalga oshirayotgan ishlarimizni sarhisob qilish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Bo‘linmalarda mehnat qilayotgan har bir xodimning munosib mehnat sharoitlarida ishlashi, mehnatga yarasha haq to‘lanishiga erishish, ularning salomatligi, texnika xavfsizligi qoidalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ishchi-xodimlarni sog‘lomlashtirish uchun Tibbiy-sanitariya bo‘limi va uning joylardagi Tibbiy-sanitariya qismlari zamonaviy tibbiy-diagnostika uskunalarini bilan jihozlangan. Joriy yil boshidan buyon TSQlariga tibbiyot asbob-uskunalar va dori-darmonlar xarid qilish uchun 22 milliard so‘m dan ko‘proq mablag‘ sarflandi. Mehnat ahlining salomatligini mustahkamlash maqsadida har yili “NKMK” sanatoriysi, “Gorniyak” pansionati, “Metallurg”, “Konchi”, “Nurobod” sanatoriyo-profilaktoriylari, “Qirg‘iz dengiz sohillari”, “Shaxand”, “Turon”, “Oqto‘sh”, “Chorto‘q” va boshqa sanatoriylarga mingdan ortiq yo‘llanmalar ajratilmoqda.

Kasaba uyushmalari ishchi-xizmatchilarning farzandlari uchun g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelmoqda. Yozgi ta‘til mavsumida mehnatkashlarning 12 ming nafardan

ko‘proq farzandlari “Zarafshon”, “So‘g‘diyona”, “Sarmish”, “Bolajon” kabi bolalar yozgi oromgohlarida dam olib, yangi o‘quv yiliga tayyorlandilar. Yil davomida ishchi-xodimlar va ularning oila a‘zolari, mehnat faxriylari va pensionerlar uchun respublikamizning Samarqand, Toshkent, Xiva, Buxoro, Shahrisabz shaharlariga sayohatlar tashkil etildi.

Mehnatkashlarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash borasida ham diqqatga sazovor ishlar bajarilmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida ana shu maqsadlar uchun 3 milliard so‘m dan ortiq mablag‘ sarflandi. Kasaba uyushma tasarrufida tashkil etilgan “Birdamlik” jamg‘armasi hisobidan kam ta‘minlangan, yolg‘iz pensioner va ijtimoiy himoyaga muhtoj 431 nafar ishchi-xodimga 988 million so‘m, boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitalari tomonidan shu tabaqadagi insonlar hamda serfarzand ishchi-xodimlarga to‘qqiz oyda 4,4 milliard so‘m miqdorida moddiy yordam ko‘rsatildi.

Kombinat ishchi-xodimlarining turmush farovonligini oshirish NKMK rahbariyatining e‘tibor markazida bo‘lib kelyapti. 2024-yilning 1 dekabr kuni e‘tiboran kombinat mehnatkashlarining maoshlari oshirildi. Kombinats rahbariyati ijtimoiy adolat tamoyilidan kelib chiqib, maoshlarni differensial tarzda, ya‘ni past razradli xodimlarga ko‘proq foiz, razradi yuqori bo‘lganlarga kamroq foiz oshirishga qaror qildi. Jumladan, 7-razradgacha bo‘lgan xodimlarning maoshi 15 foizdan 10 foizgacha, qolganlarniki sakkiz foiz miqdorida oshirildi. Bu esa korxonada ishlab chiqarishni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, pirovardida ulkan jamoa oldida turgan vazifalarni yuksak professional darajada bajarishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Isroil RAHMATOV, NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashining raisi.

Xabarlar

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining mineral resurs bazasini tashkil etadigan oltin konlarning aksariyati Qizilqum sahrosi kengliklarida joylashgan. Tomdi tumanidagi “Turbay” koni Markaziy kon boshqarmasi tarkibiga kiradigan istiqbolli konlardan biridir.

“TURBAY” — ISTIQBOLLI KONLARDAN BIRI

Mazkur konni o‘zlashtirish ishlari investitsion loyiha asosida 2022-yilda boshlangan edi. Loyiha doirasida konda yiliga 2 million tonnadan ortiq oltin tarkibli ma‘dan qazib olinmoqda. Xususan, 2023-yilda 2,3 million tonna ma‘dan qazib olingan bo‘lsa, 2024-yilning o‘tgan o‘n oyida bu ko‘rsatkich 2,6 million tonnani tashkil etdi.

Hozir konda 350 nafardan ortiq ishchi-xodim mehnat qilmoqda, — deydi “Turbay” koni boshlig‘i Ilhomjon Xudaynazarov. — Kondan qazib chiqarilgan ma‘dan 50 kilometrlik temir yo‘l orqali qayta ishlash uchun 5-gidrometallurgiya zavodiga tashib keltirilmoqda. “Turbay” konining bosqichma-bosqich o‘zlashtirilishi natijasida uzunligi 1,5, kengligi 1 kilometr, chuqurligi qariyb 200 metrga teng bo‘ladigan karyer shakllanadi.

Ma‘dan qazib olish hajmini oshirish maqsadida investitsion loyihalar asosida konga zamonaviy og‘ir yuk tashuvchi avtoag‘dargichlar va tog‘-kon texnikalari keltirilmoqda. Konda “Hitachi” va “Liebherr” rusumli gidravlik ekskavatorlar, “Sandvik” rusumli burg‘ilash uskunalar, “Komatsu” rusumli avtoag‘dargichlar va turli yordamchi texnikalardan keng foy-



dalanilmoqda.

Korxonada ishchi-xodimlari uchun qulaylik va munosib mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida vaxta usulida ishlaydigan ishchilar uchun 300 o‘rinli yo‘toqxona, 90 o‘rinli oshxonada barpo etildi. Elektr energiya sarfini kamaytirishda muhim o‘rin tutadigan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish

uchun kon hududida quvvati 1 MW bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish ishlari olib borilmoqda.

“Turbay” konini o‘zlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini bermoqda.

Aziza IRISOVA.

SUV HAJMI OSHADI

Amudaryo suvi katta nasos agregatlari hamda 5 ta suv nasos stansiyalari orqali 320 metr balandlikka ko‘tarilib, Zarafshon sanoat hududiga keltiriladi hamda 2, 3, 5, 7-gidrometallurgiya zavodlariga, shuningdek, Zarafshon, Uchquduq shaharlarining ichimlik va sug‘orish tizimlariga yetkazib beriladi. Bunday ko‘lamli ishlarni Markaziy kon boshqarmasi Tashqi suv ta‘minoti birlashgan energiya xizmati ishchi-xizmatchilari amalga oshirmoqda.

Kombinatni 2026-yilgacha rivojlantirish dasturiga asosan “Amudaryo-Zarafshon suv quvurining uchinchi tarmog‘ini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish” investitsion loyihasi yaqin kunlarda nihoyasiga yetkaziladi. 2017-yilda boshlangan mazkur loyiha doirasida 156,2 kilometr metall quvurlar yotqizildi. Qurilish-montaj ishlarini Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasi bajarmoqda.

— Oltmish nafar jamoamiz bilan Qizilqum cho‘li sharoitida vaxta usulida mehnat qilayapmiz, — deydi “Sanoatelektrmontaj” tresti uchastka boshlig‘i Rustam Amonov. — Montaj ishlarini tez va sifati



amalga oshirishda Siroj Samadov, Ashraf Rajabov, Sherali Qurbonov, Hasan Mustafoyev kabi elektrpayvandchilarning hissasini katta bo‘lmoqda.

Loyiha tarkibida 13 ta obyekt qurilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bugungi kunda 11 ta obyekt to‘liq foydalanishga topshirilgan. Loyiha to‘liq ishga tushgach, Amudaryodan keltirilayotgan suv hajmi yiliga 31,2 million kubmetrga oshadi.

Azamat ZARIPOV, V.YAKOVLEV olgan surat.

■ Dolzarb mavzu

INSON AQL-ZAKOVATINING MEVASI

Shoir ta'riflaganidek, Quvaning anoricha keladigan ona sayyorani tomosha qilarkansiz, Yer sarhadlariga qon tomirlardek yoyilgan zilol chiziqlar, tomchi-sachratma ko'kish bo'yoqlar e'tiboringizni tortadi. Bu zilollar – hayot chiziqlari! Ilm-fan in'ikosi o'laroq, mitti globusga joylashgan ulkan Yerning, unda yashovchilarning hayot gavhari, tiriklik manbai, Yaratganning bebaho va tengsiz ne'mati suvdur.

Darhaqiqat, suv bor yerda hayot mavjud, borliq jonzotning umri unga bog'liq. XX asr boshlarida, ayni vaqtda biz istiqomat qilayotgan hududlardan o'tgan karvon, adashgan yo'lovchi yoxud cho'pon-cho'lqlar bu kengliklarga hayot baxsh etadigan, goh-gohida uchraydigan quduqlardan boshqa tiriklik manbaini uchratmagani bo'lsalar kerak. Sahroda qudratli korxonaning barpo etilishi, to'g'rirog' ilmi, ancha o'lsidagi daryoni cho'l tomon boshlab keldi. Suv ortidan odamlarni ergashirdi – mo'jazzina aholiga ega sanoat shahri paydo bo'ldi. Boshida, oz sonli aholi bilan boshlangan hayot bugungi kunda jo'shqin va qaynoq turmush tarzini qamrab olgan. O'tgan davr va zamona zayli, o'sib borayotgan aholi, shiddat-la o'zgarib borayotgan hayot kechagi kun sharoiti bilan yashash va ishlashni allaqachon yoqlamay qo'ygan, yangi davr yana ilm sohiblari zimmasiga yangi yangi vazifalar yuklagandi. Bugungi kunda, korxonadagi osmon qadar yuksalgan inshootlar, mahobatli texnikalar, aql bovar qilmas bio-kimyo ham kon boshqarimasi ilmi, vatanparvar va fi-doyi mutaxassislari aql-zakovatlari tufayli yangilangan. 3-gidrometallurgiya zavodini ke-zarkansiz, qudratli texnologiyalar jamlangan seklardagi jarayonni kuzatib, mo'jiza ichida qolgandek his etasiz o'zini!

Konchilik va metallurgiya ilmi mutaxassislarining cho'l sharoitida zamon va vaqt bellashuviga ilm bilan muntazir turgani to'g'risidagi mulohazalarni bejiz keltirmadik. 2000-yil-larga kelib hududda oksidlangan ma'danlar zaxirasining yildan-yilga kamayayotgani to'g'risidagi xulosa ilm sohiblari zimmasiga yangi texnologiyani sanoatga joriy etish - sul-fidli ma'dandan oltinni ajratib olishdek mas'u-liyatli vazifani yuklagandi. Murakkab texno-logiyani joriy etish vazifasini amalga oshirish maqsadida jahonning bir nechta yetakchi

kompaniyalarining taklif va tajribalari o'rganib chiqildi. Ekologik toza, energotejamkorligi yuqori, texnologik jarayonlarni boshqarish qulayligi jihatlariga ko'ra sulfidli ma'danlarni biologik oksidlash texnologiyasi tanlab olindi. Natijada, bu jarayon zavodning ishlab chiqarish quvvatini bir necha barobarga oshirish imkonini berdi.

“Cho'lda suv oltindan qimmat”, deyishadi. Aslida, suv qadri zamon va makon tanlamaydi va ushbu tushuncha Amudan tortilayotgan suvning hisobi o'lhog'lik, shu bilan birga, cho'llanish darajasi kundan-kunga ortayotgan bir davrda, kon boshqarimasi texnolog-mutaxassislarini Bioksidlash sexi uchun kerakli suvni cho'l bag'ridagi suv konlaridan tortib olish to'g'risida maqsadli ish olib borishga undadi. Ilmning samarasi sifatida, 3-gidrometallurgiya zavodi hududida Issiqlik, suvgaz ta'minoti va oqova suvlari sexining Tuzsizlantirish majmuasi ishga tushirildi.

Tuzsizlantirish majmuasi 3-gidrometallurgiya zavodining BIOX sexiga tuzsizlantirilgan suv yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Bu ob'ekt Germaniyaning ilg'or texnologiyasiga binoan “Eurowater” kompaniyasi tomonidan 2016 yilda foydalanishga topshirilgan bo'lib, Beshbuloq nasos stansiyasidan kelib tushadigan texnik suvni maxsus filtrlar va qurilmalar yordamida tuzsizlantirib beradi. Tuzsizlantirish majmuasining loyiha quvvati soatiga 800 kubometr bo'lib, shundan 600 kubometri iste'molchiga, qolgan 200 kubometr tuzli konsentrlangan suv esa bug'lanish kartasiga yuboriladi.

Majmuua tuzsizlantirilgan suv uchun hajmi 1200 kubometr bo'lgan rezervuar, sanoat suvini tuzsizlantirish majmuasi va Beshbuloq suvini tuzsizlantirish uchun tozalash inshootlaridan tashkil topgan. “Eurowater” kompaniyasi tomonidan Tuzsizlantirish majmuasi-

ga bosim filtrlari, teskari osmoslar, yuvish va tozalash qurilmasi CIP, markaziy PLS boshqaruv shkafi o'rnatilgan. 10 TFB 70 SPS turdagi 10 dona filtrning asosiy vazifasi teskari osmos tizimini Beshbuloq quduqlarining mahalliy nasosi orqali doimiy bosim bilan beriladigan texnik suvning mexanik aralashmalaridan himoya qilishdir. Oddiy rejimda 10 ta filtr parallel ravishda ishlaydi, har bir filtrning nominal quvvati soatiga 80 kubometr. Bosim filtrlar ko'p qatlamli filtrlar sifatida ishlab chiqilgan bo'lgan, asosan, Beshbuloq quduqlarining texnik suvini qattiq moddalar va erigan temirlardan tozalash uchun qo'llaniladi.

Beshbuloqdan keladigan texnik suv tarkibidagi tuz miqdori yettita teskari osmos qurilmalari tizimi yordamida kamaytiriladi. Ularning har biri kamida soatiga 60 kubometr suv tozalash xususiyatiga ega. Bunga qo'shimcha ravishda, permeat soatiga 26 kubometr bo'lgan, oldindan tozalangan suv bilan aralashiriladi. Shunga muvofiq, jami soatiga 600 kubometr tozalangan suv ishlab chiqariladi va ushbu suvlar rezervuargacha borib tushadi. Tozalangan suv rezervuardan mahalliy nasos yordamida iste'molchilarga yetkazib beriladi.

Suv tozalash inshootlari protsessor bilan jihozlangan bo'lib, asosiy boshqaruv paneli tomonidan boshqariladi. Boshqaruv panelining vazifasi Tuzsizlantirish majmuasidagi barcha texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan holda boshqarishdir.

Yaratgan bashariyatga suvdek bebaho ne'matini yog'in bulutlarini shamollari orqali haydab, tog' bog'larga yomg'ir shaklida yog'dirib, quyosh nurlari bilan qorlarini eritib, insonlar foydalanishi uchun daryoyu ariqlar suv qilib oqizib qo'ydiyu keyingi jarayonni insonning aql-zakovatiga havola etdi. Tuzsizlantirish majmuasi ham inson zakovati, ilmi va shijoati ortidan bunyod etilgan bo'lib, cho'lda hayot davomiyiligiga, sanoat rivojlanishiga yana bir misoldir.

Ahad ORTIQOV,
SHKB bosh energetik bo'limi boshlig'i,
Nilufar MUYDINOVA,
Axborot va ma'naviyat-ma'rifat guruhi rahbari.

■ “Navoiyuran” davlat korxonasi

Transformatsiya mamlakat iqtisodiyoti faoliyatining barqarorligi va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyulidagi PQ-319 sonli qaroriga muvofiq korxonani transformatsiya qilish natijasida xalqaro kredit reytingini olish hamda korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish vazifasi belgilangan.

NUFUZLI XALQARO KREDIT REYTINGI QO'LGA KIRITILDI



Jumladan, Standard&Poor's Global Ratings agentligi “Navoiyuran” DKning uzoq muddatli defolt reytingi (Long term issuer default rating) BB-/barqaror (Stable) va yakkalangan kredit profili (Stand alone credit profile) BB-ekanligini belgilab, O'zbekiston Respublikasi hududidagi yirik sanoat davlat korxonalarida ikkinchi o'rinni egallaganligi tasdiqlandi.

Shu bois, “Navoiyuran” davlat korxonasi balansidagi 17 ta muhim konlarning uran zaxiralari Avstraliyaning JORC code standartlariga muvofiq 71 ming tonna etib baholandi hamda 2022-2023-yillar uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) talablari asosida birinchi bor tayyorlangan moliyaviy hisobotlariga “Katta to'rtlik (BIG FOUR)” safiga kiruvchi Deloitte xalqaro auditorlik tashkilotidan “ijobiy” auditorlik xulosasini berdi.

Xususan, Standard&Poor's Global Ratings hisobotiga ko'ra “Navoiyuran” DK jahonda uran ishlab chiqarish bo'yicha 5-o'rindaligi hamda ishlab chiqarish xarajatlari boshqa uran ishlab chiqaruvchi nufuzli xorijiy kompaniyalarga nisbatan eng past ekanligi tasdiqlandi.

Xalqaro reyting agentligi korxonaning transformatsiya dasturi asosida amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishdi. Xususan, korxonaning uzoq yillik strategiyasi va maqsadli ko'rsatkichlari, ope-

ratsion samaradorlik tadbirlari, korxonaga boshqaruvga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar faoliyati, korporativ boshqaruv tizimi transformatsiyasi, atrof muhit, ijtimoiy va korporativ (ESG) tamoyillarini joriy etish maqsadida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (ISO 45001), energiya samaradorligini boshqarish (ISO 50001), axborot xavfsizligi (ISO 27001), ekologik (ISO 14001) va sifat menejmenti (ISO 9001) bo'yicha qo'lga kiritilgan xalqaro sertifikatlar, Global Reporting Initiative standartlariga asosan 2022 va 2023 yillar uchun ishlab chiqilgan “Barqarorlik hisobotlari” (Sustainability report) o'rganib chiqildi.

Shu bilan birga, Standard&Poor's Global Ratings agentligi Fransiyaning “Orano mining” va Yaponiyaning “JOGMEC” va “ITOCHU” kabi xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan strategik hamkorlik kelishuvlariga muvofiq olib borilayotgan investitsiya loyihalari korxonani yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati borligini e'tirof etdi.

Ma'lumot uchun: Standard&Poor's Global Ratings — xalqaro reyting agentliklaridan biri bo'lib, agentlik xalqaro moliya bozorlari ishtirokchilari uchun xalqaro reytingga ega bo'lgan kompaniyalar to'g'risida mustaqil tahlil asosida ma'lumotlar va xulosalar beradi.

“Navoiyuran” DK axborot xizmati.

■ 2025-й – Год защиты окружающей среды и «зеленой экономики»

ПРОМЫШЛЕННОСТЬ И ОКРУЖАЮЩАЯ СРЕДА ДОЛЖНЫ СУЩЕСТВОВАТЬ В ГАРМОНИИ

Ни для кого не секрет, что горно-металлургическая промышленность оказывает негативное влияние на окружающую среду, поскольку на предприятиях отрасли используются многопрофильные и сложные технологические процессы, ведутся подземные и открытые горные работы. И уже со второй половины прошлого столетия металлургические заводы занимаются большой работой по снижению вредного влияния производства на окружающую среду и здоровье человека. Не является исключением и АО «Навоийский горно-металлургический комбинат».

С 1970 года в составе Центральной научно-исследовательской лаборатории АО «НГМК» осуществляет свою деятельность лаборатория охраны окружающей среды и радиационно-дозиметрического контроля (ЛООС и РДК), которой руководит опытный специалист Наргис Темуровна Ходжаева. Коллектив лаборатории небольшой – всего 15, но профессиональных сотрудников.

Работники ЛООС и РДК разделены на две группы: охраны окружающей среды и радиационно-дозиметрического контроля, - рассказала Наргис Темуровна. - Наша главная задача - комплексное изучение степени влияния деятельности подразделений комбината на состояние окружающей среды и радиоактивного загрязнения. В этой связи, ежедневно проводятся сотни анализов. В частности, анализируются сточные воды с колодца ГМЗ-1 и Центральной научно-исследовательской лаборатории, определяется концентрация цианидов и роданидов, представленных с хвостохранилища завода, шахтная вода с рудника «Каракутан». Систематически ведём контроль и учёт источников выбросов, определяем содержание вредных химических веществ в промышленных выбросах в атмосферу, в природных и сточных водах; осуществляем контроль над радиационной обстановкой и состоянием окружающей среды санитарно-защитных зон предприятий комбината и прилегающих населённых пунктов. Также определяем состояние радиационной безопасности при сборе, удалении и захоронении отходов производства; производим замеры на вентиляционных выбросах от сталеплавильных пе-



чей литейного производства ПО «НМЗ» на содержание сернистого ангидрида, замеряем уровень шума, вибрации, освещённости, микроклимата рабочих помещений. А также лаборатория ООС и РДК проводит радиационно-дозиметрические измерения хвостохранилища ГМЗ-1 с предоставлением отчёта о его современном состоянии. По заявкам производится контроль вредных химических веществ от источников выбросов Марджанбулакского золотодобывающего цеха, обжиговых печей ГМЗ-3 и ГМЗ-5, ведутся опытные работы по кислородно-известковому окислению (КИО) ГМЗ-5. Словом, работы много и она необходимая и интересная...

Надо отметить, что для проведения этих важных анализов в лаборатории имеется современное оборудование. За последние 10 лет по программе развития, переоснащения

и обновления средств измерений (СИ) и испытательного оборудования (ИО) для лаборатории приобрели новые приборы и оборудование. Среди них прибор для измерения шума и вибрации «Ассистент», люксметр-яркомер-пульсметр «Эколайт-02», дозиметр-радиометр ДКС-96, альфа-радиометр «Прогресс-Ар», комплекс измерительный радона «Альфарад», гамма спектрометр сцин-

тилляционный «Прогресс-Гамма», измеритель параметров микроклимата «Метеоскоп-М», аспиратор пробоотборник АПВ-4-12/220В-40. Все они помогают достигать более точных результатов при измерениях. Также специалисты ЦНИЛ - ведущий инженер В.И.Коваленко, начальник лаборатории ООС и РДК Н.Т.Ходжаева, инженер группы РДК Д.Ш.Камолова, инженер группы ООС М.Т.Умирзакова разработали целый ряд новых методов выполнения измерений. В новых нормах и правилах проводится строгое разграничение методов и средств обеспечения радиационной безопасности и охраны окружающей среды.

В связи с ростом новых требований к качеству и количеству выполняемых работ в области охраны природы специалисты лаборатории ООС и РДК принимают активное участие в комплексных и целевых проверках состояния



охраны окружающей среды, охраны труда, техники безопасности, противопожарной безопасности и промышленной безопасности в подразделениях комбината; осуществлении поиска, сбора и обработки информации о достижениях в области охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов; оказании содействия проведению научно-исследовательских работ, проводимых комбинатом и привлечёнными организациями, по темам охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов; осуществлении связи с органами Государственного комитета по охране природы Республики Узбекистан, органами санитарного надзора, научно-исследовательскими и проектными институтами по вопросам охраны окружающей среды. Это необходимо в целях соблюдения требований в области охраны окружающей среды, установленных законодательством.

В лаборатории работают опытные сотрудники, имеющие многолетний опыт. Среди них начальник ЛООС и РДК Н.Т.Ходжаева, инженер РДК Д.Ш.Камолова, инженер ООС Н.Х.Бозорова, дозиметристы А.С.Байбекова, Ф.К.Сафаров и Л.Х.Ашурова, лаборант химического

анализа Ф.К.Суванова. Полностью справляются со своими обязанностями, повышают квалификацию и занимаются самообразованием молодые талантливые работники: инженер ООС М.Т.Умирзакова, инженер РДК Ш.Г.Салимов, лаборанты химического анализа Ю.А.Аликулова, М.Б.Махдиева, Н.И.Муродова, В.С.Камалова, дозиметрист О.В.Вьюнникова. Так что, в лаборатории растёт достойная смена.

В настоящее время специалисты ЛООС и РДК выполняют работу согласно утверждённому плану-графиком подразделений АО «НГМК», ГП «Навоийуран», а также по уменьшению количества вредных химических веществ от источников выбросов промышленных предприятий в атмосферу.

Работа, проводимая коллективом ЛООС и РДК, особенно важна для Навоийского региона, где сосредоточены многие промышленные объекты. Поэтому деятельность лаборатории здесь особенно актуальна. А коллектив лаборатории использует все знания, возможности и опыт для профессионального и неустанного контроля окружающей среды и климата контроля рабочих мест заводчан.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Xabar

So'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlarning davlat organlariga hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini soddalashtirish, ulardan ortiqcha hujjatlarni talab qilib olishga chek qo'yish hamda huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

TADBIRKORLARGA YANADA QULAY SHART-SHAROITLAR YARATILDI

2024-yilning 21-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan hisobotlarni davlat organlariga taqdim etish jarayonlari soddalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy yuvog'arlik to'g'risidagi kodeksining 24110-moddasiga o'zgartirish kiritish haqida”gi Qonuni qabul qilinishi bunga yana bir yorqin misoldir.

Qonunga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga taqdim etiladigan hisobot va statistika ma'lumotlarining yagona ro'yxatiga kiritilmagan statistika, moliya, soliq va boshqa hisobotni, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilmagan o'zga hujjatlarni, shu jumladan bank hisobvarag'ini ochishda ortiqcha hujjatlarni tadbirkorlik subyektlaridan talab qilib olganlik, mazkur yagona ro'yxatga kiritilgan hisobotni taqdim etishning belgilangan muddatlari va tartibiga zid ravishda talab qilib olganlik uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritildi.

Mazkur Qonunning qabul qilinishi davlat organlarining hisobotlarni talab qilib olish borasidagi mas'uliyatini oshirishda va qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining kelgusidagi faoliyatida muhim o'rin tutadi hamda ularning huquqlarini himoya qiladi.

Dilshod TURDIYEV,
Uchquduq tuman iqtisodiy sudi raisi.

■ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32 yilligiga

IZLAGAN IMKON TOPAR

Yurtimizda ilm-fan bilan shug'ullanayotgan opa-singillarimizga o'zlarining ilmiy-ijodiy salohiyatini to'laqonli yuzaga chiqarishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berilayotgani quvonarli holdir. Iqtidorli, ilmiy salohiyatga ega ayollar fan va texnika yo'nalishlarining barcha jabhalarida izlanishlari, ixtiro, innovatsion loyiha va ilmiy ishlanmalari bilan yangilik yaratmoqdalar.



Zarafshon qurilish boshqarmasining izlanuvchan xodimlari Surayo Isaqulova va Malika Artikovalar hammualliflikda "Kadrlar bo'limi xodimlarining ish majburiyatlarini bajarishda yengilliklar, qulayliklar yaratish platformasi" nomli ratsionalizatorlik taklifini ilgari surishdi. Ularning takliflari asosida Zarafshon qurilish boshqarmasi kadrlar bo'limida ish yuritish jarayonini elektronlashtirish maqsadida axborot tizimi yaratilib, barcha ma'lumotlar "1C" dasturiy ta'minot ma'lumotlar bazasiga jamlanadigan bo'ldi. Mavzu yuzasidan g'oya mualliflari bilan suhbatda bo'ldik.

Surayo Isaqulova, Zarafshon qurilish boshqarmasi kadrlar bo'limi muhandisi - ratsionalizator:

- Ma'lumki, korxonada 2021-yildan e'tiboran avtomatlashtirilgan "1S Korxonana, ish haqi va xodimlarni boshqarish" elektron dasturi amalda keng foydalanilmoqda. Ushbu dasturda ishlash davomida avval qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar bo'ldi. Hozirda esa shunchalik o'zlashtirilib olindi, o'zimiz dasturga platforma yaratib, undan yanada ko'proq foydalanish imkoniyatiga ega bo-

layapmiz. Respublikamiz mehnat qonunchiligidagi talablarga muvofiq, algoritim yo'nalishida maxsus vazifalar tuzib, takliflar kiritdik. Bunda dasturchilar Yashin Raupov va yosh iqtidorli mutaxassis Yorqinjon Sayfiyevlar bizga yaqindan ko'maklashdilar. Har bir yo'nalishning ishlash funksiyalari, natijasi va ishlash samaradorligini tahlil qilib, birgalikda takror-takror tekshirib, yaratilgan dasturni ishga tushirdik. 2023-yil may oyidan yangi Mehnat kodeksi joriy etildi. Avvalgi va yangi mehnat ko-

deksi moddalariga kiritilgan o'zgarishlar va yangiliklar ushbu dasturga joylab, ishlab chiqildi. Ilgari ishchi-xodimlar mehnat, ish haqi saqlanmagan holdagi ta'tilini, o'quv ta'tillarini rasmiylashtirish uchun ortiqcha ovoragarchiliklarga duch kelishardi. Xodimning yozma arizasiga ko'ra unga ish haqi saqlanmaydigan ta'til berilishi mumkin bo'lib, uning davomiyligi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra belgilanardi. U ish haqi saqlanmaydigan oxirgi ta'til berilgan kundan e'tiboran kalendar yil davomida uzluksiz yoki jamlangan holda 3 oydan oshmasligi kerak. Endilikda, bu jarayonlar elektron tarzda amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, xodim kalendar yil davomida 3 oydan ortiq ish haqi saqlanmaydigan ta'til o'lmaydi, chunki dasturda avtomatik tarzda bloklash tizimi o'rnatilgan. Bu amaliyotlarning barchasi xodimning T2-formali shaxsiy kartochkasida va ish vaqti hisobi tabelida aks ettirib boriladi. Buning natijasida ortiqcha ovoragarchiliklar bartaraf etilib, tez, sifatli va shafqatli xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Bu usul avvalgisiga qaraganda oldinga bir qadam qo'yish deb o'ylayman. Bu borada ishlash chiqilgan dasturlarimiz, takliflarimiz va yaratilgan yangi platforma rahbariyat tomonidan baholalanib, bizga qo'shimcha mukofot berildi.

Ushbu dasturda me'yoriy hujjatlar bazasi, uslubiy ishlanmalar, ta'tillarning tuzilishi bo'yicha tanlov huquqlari, ta'tilni taqdim etish haqida buyruq blankalari, arizalar namunalari, korxonada xodimlari harakati jurnali va elektron ma'lumotlar

bazasida qayd etish jurnallari shakllari bilan bog'liq ishlar Zarafshon qurilish boshqarmasining tarkibiy bo'linmalarida onlayn (elektron) tarzda amalga oshirilmoqda.

Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasidan.



Malika Artikova, "Sanoatelektromontaj" montaj-qurilish tresti kadrlar bo'limi boshlig'i:

- Bu ratsionalizatorlik taklifimizning afzalliklari ko'p. Avval barcha buyruqlar, bayonnomalar va boshqa hujjatlar qo'lyozma shaklida bajarilar edi. Endilikda bu ishlarining barchasi axborot tizimida tayyorlanib, chop etiladi hamda bazada saqlanadi. "1C" dasturini amalga oshirishdan oldin xodimning mehnat ta'tilini rasmiylashtirish jarayoni ko'p vaqt talab

etardi. Dastur joriy etilgach, bu ishlar 10-15 daqiqada amalga oshirilayapti. Qolaversa, mehnat ta'tili jadvaliga ko'ra korxonada rahbarlariga xodimlarining ta'tilga chiqish muddati to'g'risida elektron tarzda xabarнома yuboriladi. Mutaxassislar avvalgidek xodimning mehnat staji, ish sharoiti, oilaviy sharoiti, ish jadvali kabi shunga o'xshash holatlarni inobatga olgan holda mehnat ta'tili davomiyligini hisoblab o'tirmaydi, barchasi avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Eng muhimi, mutaxassis ushbu elektron ma'lumotlar bazasidan tez fursatda istalgan ma'lumotni topib, kerakli hisobotlar tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa bugungi kunda axborot tizimining qanchalik dolzarbligini ko'rsatib turibdi.

Ayni paytda mazkur elektron dastur orqali barcha turdagi ta'tillarni rasmiylashtirish, ro'yxatdan o'tkazish uchun avtomatlashtirish jarayoni yaratilib, undan avval foydalanilmagan. Bu, kadrlar bo'limi xodimlarining ishini yengillashtiribgina qolmay, vaqtini ham tejamoqda. Yangi tizim ortiqcha qog'oz-bozlikdan voz kechgan holda, mehnat samaradorligini oshirish bilan ham ahamiyatdor.

O'ylaymizki, bundan buyon ham kombinatimizning barcha tarmoqlarida mehnat qilayotgan ixtirochi, ratsionalizator, muhandis, loyihachi, dasturchi xotin-qizlarimiz yangidan-yangi g'oya va tashabbuslarda o'z qobiliyatlarini namoyon etadi. Bu kabi tashabbuskor ayollarni izlab topish, ular amalga oshirayotgan loyihalarni targ'ib qilish, yangi iqtidor qirralarini ochish va intilishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash o'z natijasini beradi, albatta.

Dildora KARIMOVA.

RAQAMLI IQTISODIYOT — TARAQQIYOT POYDEVORI

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga erishib bo'lmaydi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi tobora kengayib bormoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida bu sohada salmoqli natijalar ko'lgacha kiritilayotganligini e'tirof etish joiz. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi jamoasi ishlash chiqarishni raqamlashtirish, tizimga zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish bugunniq qat'iy talabi ekanligini teran anglagan holda faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq "2020-2022-yillarda NKMKni raqamli transformatsiya qilish dasturi" ishlab chiqilgan edi. Dastur doirasida korxonaning ishlash chiqarish va boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha 27 ta tadbirlar amalga oshirildi. Keyingi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinati raqamlashtirishda qo'lga kiritgan ijobiy natijalari uchun "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va faoliyatni raqamlashtirish borasida eng yuqori natijaga erishgan xo'jalik boshqaruvi organi" nominatsiyasida e'tirof etib kelinyapti. Raqamlashtirish dasturi doirasida joriy yilda bir qator loyihalar amalga oshirildi. Shulardan biri - "Raqamli 7-sonli gidrometallurgiya zavodini yaratish" loyihasidir. Loyiha bo'yicha zavodda mavjud ma'danni maydalash tegirmonlarining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish va barcha texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini zavodning operativ dis-petcherlik boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimiga integrallashtirish, ishlash chiqarish jarayonlarida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali erishildi.

Raqamlashtirish loyihalaridan biri bu - kon-geologik axborot tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish loyihasidir. Maxsus dasturiy ta'minot yordamida marksheyderlar, geolog va konchilar ma'lum uchastkada qanday tarkibga ega ma'danning borligi haqidagi ma'lumotga ega bo'lish uchun konlar, karyer va yerosti shaxtalarining "3D" modellari yaratish yakuni-ga yetib qoldi.

Kelgusida kombinatda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy qilish maqsadida AQShning "McKinsey & Company" kompaniyasi bilan hamkorlikda "NKMKni rivojlantirish - 2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada kombinatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib geologiya-qidiruv ishlarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chi-

qarish jarayonlarini boshqarishda sun'iy intellekt asosida boshqarish tizimlarini joriy qilish, kombinatni 2030-yilgacha rivojlantirishning ta-komillashgan investitsion dasturini ishlab chiqish belgilangan.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida so'ngi yillarda ishlash chiqarish va boshqarish vazifalarini bajaruvchi 20 dan ortiq axborot tizimlari joriy etildi. Kombinatlarning ishlab chiqarish jarayonlarida qulayliklar yaratish maqsadida "1C: Xodimlarni boshqarish", "1C: Ish haqi va kadrlar boshqaruvi", "1C: Xaridlarni boshqarish", "1C: Avtotransport boshqaruvi", "1C: ERP Xolding boshqaruvi", "1C: ERP Budjetlashtirish", "1C: ECP elektron hisob-faktura", "1C: korxonada hisobi" kabi axborot tizimlari mavjud.

Kombinatda amalga oshirilgan raqamlashtirish borasidagi islohotlar o'zining samarasini bera boshladi. Misol uchun soliq hisobotini shakllantirish muddatlarini qisqartirish maqsadida soliqlarni hisoblash va uni shakllantirish jarayoni avtomatlashtirildi. Kombinatlarning mutaxassislari tomonidan axborot tizimlari joriy etilishi hisobiga 3 milliard so'm iqtisod qilindi. Hisobotlar shakllantirish vaqti bir oyga qisqartirildi.

Transport vositalarini samarali va tezkor boshqarishga erishildi. Yoqilg'i sarfi kamaytirildi va transport yo'l bosish (yurish) masofasi qisqartirildi. Shuningdek, xarid jarayonlarini bajarish samaradorligi oshirildi hamda ombor za-xiralari qisqartirildi. Xaridlar bo'yicha arizalar elektron shaklda olib borilishi ta'minlandi, omborxonadagi qoldiqar hisobi arizaga muvofiq qat'iy nazoratga olindi. Kombinatlarning Markaziy moddiy-ta'minot bazasi tovarshunoslarining hisobi to'liq avtomatlashtirildi. Elektron savdo maydonlarini ushbu tizim bilan integratsiyalash yo'lga qo'yildi

Axborot tizimi tashkilotning axborot resurslarini ruxsatsiz oshkor qilish, ulardan noto'g'ri foydalanish yoki ularni yo'q qilish bo'yicha tahdidlardan himoya qilinishini ta'minlash hamda ma'lumotlarning tashqariga chiqib ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Shu bois texnologik jarayonlarni raqamlashtirish hisobiga texnologik uchastkalarining umumiy unumdorligi 5 foizgacha oshdi va elektr energiya resurslari 3 foizga tejallashga erishildi. Muhimi, ishlab chiqarish jarayonidagi uskunalar to'xtab qolishi kamaydi. Natijada yiliga 6,1 milliard so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy axborot tizimi gidrometallurgiya zavodlaridagi yangi qurilib ishga tushirilgan tegirmon bloklarida joriy etildi. Bu jarayon tegirmon bloklarida texnologik uskunalarining optimal ish rejimini ta'minlash va ma'danni maydalash tex-

nologik jarayoni ko'rsatkichlarining texnologik reglamentga muvofiqligini uzluksiz nazorat qilish imkonini berayapti.

Kombinat rahbariyati va manfaatdor xizmatlarning talabiga muvofiq, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik holati, xavfli ishlash chiqarish obyektlarining holati to'g'risida tezkor va to'liq ma'lumot olish uchun moslashuvchan vosita bilan ta'minlandi. Natijada mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlash, shuningdek mehnat faoliyati jarayonida xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlashni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratildi. Hozirda mazkur tizimda 3 ta modul va funksiyalar joriy etilgan.

Xaridlar jarayonlarini boshqarishga "1S:ERP" axborot tizimi joriy etilishi tufayli hujjatlarni elektron tasdiqlash imkoniyati yaratildi. Bu vaqt sarfini 40 foizgacha qisqartirishga, qo'g'oz va bosmaga ketadigan xarajatlarni 2 barobargacha tejashga olib keldi. Shuningdek, xarid jarayonlarining shaffofligi ularning joriy holatini onlayn monitoring qilish imkoniyatini ta'minladi. Loyiha foydalanishga topshirilgandan so'ng hisobot tuzish uchun xalqaro maslahatchilarni jalb qilish zarurati shart emasligi hisobiga yiliga 100 ming dollar tejallashga erishilmoqda.

Kombinatning ishlab chiqarish obyektlari texnologik jarayonlarini raqamlashtirish borasida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali gidrometallurgiya zavodlarida intellektual tizimlar joriy etilmoqda. Jumladan, 100 dan ortiq dasturiy ta'minot ishlab chiqilib, texnologik jarayonlarni tahlil qilish va boshqarish bo'yicha 100 mingdan ortiq o'lchov asboblari o'rnatildi. Masalan, 6-gidrometallurgiya zavodi 1-tegirmon blokida texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (SCADA) to'liq raqamlashtirilishi hisobiga yiliga 40 milliard so'm iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. Natijada uskunalarining to'xtab qolishi kamayadi, texnologik uchastkalarining umumiy unumdorligi 5 foizga oshdi va elektr energiya resurslari 4 foizga tejallashga erishildi. Shu bilan birga, 2-gidrometallurgiya zavodida loyiha doirasida 30-tegirmon blokida texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy qilinishi hamda raqamlashtirilishi hisobiga yiliga 40 milliard so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda. Bu yerda ham texnologik uchastkalarining unumdorligi 5 foizga oshib, elektr energiya resurslari tejallashga erishildi.

Umumiy olganda, kombinat tizimidagi barcha ishlash chiqarish va xizmatlar raqamlashtirilib, zaruriy axborot dasturlari bilan to'liq ta'minlanganligi iqtisodiy samarador bo'lishi bilan birga xalqaro standart talablariga muvofiq faoliyat yuritishni ta'minladi. Albatta, bu boradagi ishlar to'xtab qolmaydi. Raqamlashtirish hisobiga kon-metallurgiya sohasi rivoji yangi bosqichga chiqadi.

Bahridin BOZOROV, "NKMK" AJ Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

Shaxtyorlik kasbi dunyodagi eng xavfli 10 ta kasbning biri sifatida tilga olinadi. Albatta, yer ostida ishlash, tor yo'lakchalar va havo tanqisligi sharoitida mineral toshlarni maydalash - bu har kim ham bajara oladigan mashg'ulot emas.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnat uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdorida kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalash huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasidan.

KASBI — BAXTI UNING



"Muruntov" shaxtasi stvolchisi Inobat Uralova har bir ish kunini o'zgacha shijoat bilan boshlashga odatlangan. Yerning 700 metr chuqurligiga tushish va ishlashni hamma ham eplayvermaydi.

- Shaxtada ishlaydigan kishi jismonan va ruhan sog'lom, irodali, matonat egasi bo'lmog'i lozim, - deydi Inobat opa. - Shaxtada ilk ish faoliyatimni boshlaganimda, qo'rqqanimdan yig'laganman. Birinchi kundanoq tashlab ham ketmoqchi bo'lganman. O'zimdanda ancha yosh bo'lgan rus qizi Anastasiya Blogodaryova va Gulmira Xudayarovadan ko'p narsalarni o'rgandim. Ular stvol orqali tushib-chiqishda xavfsizlik talablariga rioya qilish, shaxtada tushishdan oldin maxsus kiyim, poyabzal va boshqa yakkatibda himoyalash vositalarini, ya'ni, respirator, himoya ko'zoynagi, qo'lqop va xavfsizlik kamarlarini kiyish kerakligi, individual chiroq, o'z-o'zini qutqarish vositasi va jeton olish lozimligini uqtirishgan. Hammasiga ko'nikib ketishim, ishimni yaxshi ko'rishimga ruhlanishim. Tanlagan kasbimga ko'nika boshladim. Bugun kasbimga mehriim bo'lakcha. Dam olish kunlari ham ishonimim sog'inaman. Jamoamizda o'z-gacha ahil muhit shakllangan, hamma bir-birini hurmat qiladi, qadrlaydi. Vazifam - klet orqali shaxtada tushadigan ishchilarga jeton berish. Shu bilan birga, insonning jismoniy kuchi yetmaydigan og'ir yuklarni temir arqonlarda pastki qatlama-ga yetkazamiz. Ishimizning xavfli darajasi yuqori bo'lgani bois insondan katta mas'uliyat talab etadi. Biz chuqurlikni ko'rmaymiz, signallarni to'g'ri berib, aqlimiz bilan ishlaymiz. Birgina xatomiz yo'li mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmasligimiz baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun e'tibor va hushyorlikni, mas'uliyatni his qilib ishlashimizga to'g'ri keladi.

Ayni vaqtda "Muruntov" shaxtasida 320 nafardan ortiq turli millat vakillari mehnat qilishadi. Ularning 60 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. 35 turdagi kasb vakillarining birdamligi, mashaqqatli va mas'uliyatli faoliyatlarini natijasida bugun jamoa rahbariyat tomonidan topshirilgan har qanday va-

zifani o'z vaqtida bajarib kelmoqda. Har bir ishda jamoa ahil bo'lsagina samara bo'ladi, deb uylayman. Jamoamizda uzoq yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan shaxtyorlar ko'p. Samimiy, mehroqibatli, xushmuomalalik fazilatlarini bilan ko'pchilikka ibrat bo'layotgan Inobat opani jamoamiz yaxshi ko'radi, hurmat qiladi, - deydi suhbatda "Muruntov" shaxtasi shaxta ichki transport uchastkasi boshlig'i o'rinbosari Sherzod To'rayev.

Bugun Inobat opa Uralova jamoada ustoz hisoblanadi. Sohaga kirib kelayotgan yoshlarga o'z kasb sirlarini erinmasdan o'rgatadi. Ayl hamkasblariga har doim yelkadosh bo'lishga harakat qiladi. - Hayotda vaqt o'lib, ancha yashab ko'rganingizdan keyin ko'p narsalarning qadriga yetib borarkansiz. Siz uchun qadri bo'lgan insonlarning qadriga yetishga o'rganar ekaniz. Hayot yo'llarimdan ortga boqarkanman, o'ylanib qolaman. Taqdir meni tushunadigan, qadrlaydigan inson bilan uchrashirdi. Qariyb o'ttiz yildan buyon turmush o'rtog'im Abduqodir Xalilqulov bilan shirin oila tashvishlarini yelkama-yelka yengib kel-yapmiz. Uch qiz-u, bir o'g'lini kamolga yetkazib, mehr berib tarbiyalab, oliy ma'lumotli qildik. Bugun ular ham kombinat sohasida ishlash boshladi, jamoasida ham o'z o'ini bor. Inson uchun aslida bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak. Hali bundan ham yaxshi kunlarim oldinda deb o'ylayman, - deydi I.Uralova.

So'lim va go'zal go'shalardan hisoblangan Nurota tumanidagi Qadoq qishlog'ida, ishchi oilasida dunyoga kelgan Inobat opa hayotining mazmunini oilasida va tanlagan kasbida deb bildi. Yoshligi naqshinkor g'ilamlar to'qish bilan o'tgan qahramonimiz geologiya sohasida 40 yillik tajribaga ega otasidan hayotda ko'p jihatlarini o'rganganini ta'kidlaydi. - Bolaligim qishloqda o'tgan. Xotin-qizlar g'ilam to'qish bilan shug'ullanardi. Oilada to'rt qiz, uch o'g'il voyaga yetganmiz. Yoshligimizdan bizning oilani qishloqdagilar "g'ilam to'qish fabrikasi" deb atashardi. Onam uy bekasi bo'lganliklari bois bizlarni yoshlikdan mehnatga o'rgatganlar. Kelajagimizni ota-onamiz oldinda ko'ra bilib, kitob o'qish, bilim olishga sharoit yaratib bergandilar. Kasb tanlashimda ham ko'proq ota-onam yo'l ko'rsatganlar. Jizzax pedagogika bilim yurtida o'qidim. Turmushga chiqib, Zarafshon shahrida kombinatga qarashli bolalar bog'chasida ishladim. Orada farzandlarim tarbiyasi bilan bir oz vaqt uyd o'tirdim. Vaqt o'tib, qonimizda bormi, Zarafshon shahridagi O'quv markazida o'qib, diplom olib, shaxtaga yer usti stvolchisi bo'lib ishga kir-dim, - deya qo'shib qo'ydi Inobat opa.

O'z ishiga mehri bo'lakcha qahramonimiz "Muruntov" shaxtasida ba'zan tonglarni qarshi olsa, ba'zida tunlarni bedor o'tkazishiga to'g'ri keladi. Turmush o'rtog'i va farzandlari bilan kombinatdek ulkan dargohda ishlash baxti peshonasiga bitilgani uchun taqdiridan minnatdor bo'lib yashamoqda.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ “Farhod” madaniyat saroyi to‘garaklarida

“Mening eng katta tashvishim, maqsadim - yoshlar tarbiyasi. Biz olgan marralar uchun bilimlil avlod kerak. Buning uchun hamma sharoitlarni yaratishga harakat qilyapmiz. Sizlar esa vaqtning qadriga yetib, bor imkoniyatni ishga solib, o‘qishingiz kerak. Olgan bilimingiz, o‘rgangan kasb-hunaringiz kelajakda sizlarga qanot bo‘ladi, – degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev viloyatimizga tashriflari chog‘ida.

BILIM VA KASB-HUNAR —
YOSHLARGA QANOT

“NKMK tarixi” muzeyi mudirligida ishlaganida bu yerga har oyda o‘rta hisobda 600 nafardan ortiq kishi tashrif buyuradi. “NKMK jamg‘armasi” DM bo‘linmalarining “Bolalar ijodiyot markazlari” to‘garaklari ishtirokchilarining ijod mahsullari namunalari muzeyning ikkinchi zali javonlaridan eksponatlar sifatida joy olgan. Mehmonlar “Farhod” madaniyat saroyining 1- qavatida madaniyat saroyining berpo bo‘lishi tarixi va MSga qarashli “Bolalar ijodiyot markazi”da faoliyat yuritayotgan to‘garaklarda bolajonlar o‘z qo‘llari bilan yaratayotgan go‘zallik namunalari bilan yaqindan tanishishadi. Ular bolalarning iqtidorlariga tasanno aytgan holda, o‘z hayratlarini izhor qilishadi. Chet ellik mehmonlarda ko‘rgazmaga qo‘yilgan kulochilik, kashtachilik, zardo‘zlik kabi o‘zbek milliy amaliy san‘atiga oid eksponatlar katta qiziqish uyg‘otadi.

“Bolalar ijodiyot markazi” xodimlari to‘garak ishtirokchilarini tadbirlar rejalarini asosida muzeyga ekskursiyaga olib kelishlari orqali ularni kasb tanlashga yo‘naltirishadi. Muzeyda mingdan ortiq eksponatlar mavjud bo‘lib, ulardan ba‘zi birlarini restavratsiya qilishga to‘g‘ri keladi. Bunday holda dono xalqimizning “Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin” degan naqliga amal qilib, “Bolalar ijodiyot markazi” mutaxassislariga murojaat qilar-dik.

Bir safar ijodiyot markaziga borganimda “Robototexnika va mexatronika” to‘garagida shug‘ullanayotgan bolalar orasida nimanidir o‘lchami ustida ishlayotgan bola e‘tiborimni tortdi.

- Yoshing nechada? Ismi-familiyang nima?, - savol berdim men.

- Yoshim 13 da, ismim Ozod, familiyam Toshmamatov.

- Shu atrofda yashaysanmi?

- Yo‘q, men Karmana tumanining Malikrabot qo‘rg‘onidan avtobusda qatnayman. Haftasida uch kun, darslardan tashqari vaqtda, albatta.

- Uzoq emasmi? Bu yerni qanday topib kelgan-san?

- Bolaligimdan texnikaga juda qiziqaman, biror narsani tuzilishini bilish uchun uy qismlarga ajratishga, yig‘ishga, sozlashga ishtiyoqim baland, sxemalar va chizmalar ham e‘tiborimni tortar edi. Onamdan meni qiziqishimga mos to‘garak topib berishlarini iltimos qilishganman. Bir kuni onam bilan

mana shu yerga keldik va ustozlarga uchrashdik. Ularga qo‘lmdan keladigan ishlarni ko‘rsatdim, meni to‘garakka qabul qilishdi. Bilasizmi, menga o‘z qo‘llarim bilan biror narsa yasash juda yoqadi. Ustozimiz Shavkat aka juda mehribon, talabchan, bilmaganimni so‘raganimda yotig‘i bilan tushuntirib, ko‘rsatib beradigan, mehnatlarini va vaqtlarini ayamaydigan inson, dedi kichik suhbatdoshim.

- Kelajakda kim bo‘lmoqchisan?
- Arxitektor.

Uning burro-burro, dadil va asosli javobi menga ma‘qul bo‘ldi. Shu payt ustaxonaga kirib kelgan bolajonlarning ustozlari bilan salomlashgandan so‘ng, Shavkat Valiyevni suhbatga tortdim:

- Men bolaligimdan maketsozlikka, robototexnikaga juda qiziqqanman. 11 yilki hayotim “Yosh texnik” klubi bilan chambarchas bog‘liq. Bilasiz-ku, har bir bolada qaysidir sohaga, kasbga layoqat bo‘ladi. Ana shu layoqat bora-bora qobiliyatga aylanadi. Qobiliyat rivojlanib borilsa va katal-talar tomonidan qo‘llab-quvvatlansa, unga o‘zini namoyon qilishda ko‘mak berilsa bas, kelajakda

shakllantiradi. Mexatronika doimiy ravishda mexanika, elektronika va axborot texnologiyalaridan foydalanadi va ularni mujassamlashtiradi. “Aqlli uylar”, “aqlli mashinalar”- bular barisi mexatronika, misol uchun, bugungi kunda hech kim uchun hayratlanarli bo‘lmagan holat- ba‘zi avtomobillar-ning to‘siq oldida avtomatik ravishda tormozlashi ham mexatronikadir.

Yaqin kelajakda korxonalarda jarayonlarni avtomatlashtirish muqarrar ravishda qo‘l mehnatiga emas, balki aqlli mehnatga asoslangan yangi ishchi kasblarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ushbu yangi kasb boshqaruv tizimi dasturchisi mashinist, chilangar va elektr energetikasi sohasi mutaxassisligi ko‘nikmalarini birlashtiradi. Aslida, bu avtomatlashtirilgan tizimlarni o‘rnatish va saqlash bo‘yicha universal mutaxassislikdir.

Bolalarning zehn va ishtiyoq bilan bajarayotgan ishlarga qarab, Prezidentimizning viloyatimizning Navbahor tumanidagi politexnikumda hunar o‘rganayotgan xotin-qizlarga qarata: “Kasbni mahkam tutib, hayotda o‘z o‘ringizni toping. Mehnatingizdan baxt topishingiz uchun sizlarni

qo‘llab-quvvatlaymiz”,- degan so‘zlari yodimga tushdi. Bu nafaqat xotin-qizlarga, balki mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodga qarata aytilgan da‘vat edi. Davlatimiz rahbari rahnamo-ligida yurt kelajagi bo‘lmish bolalarimizning ilmi bo‘lishi, chet tillarini va kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda.

O‘zimni qiziqtirgan savollarga javob olgach,

to‘garak rahbari bilan meni bu yerga yetaklab kelgan masala – eksponatlar restavratsiyasi xususida suhbatlashdik. Ijodiyot markazi mudiri Akmal Turdiyev ham, u kishi rahbarligi ostida mehnat qilayotgan Shavkat Valiyev kabi mutaxassislar ham muzeyda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarga mas‘uliyat bilan yondashishlari, yordam so‘raganimizda beminnat xizmatlarini ayashmagani qu-vontiradi.

Odarning qiymati emas simu-zar,
Insonning ziyinati kasb ila hunar
deb bejizga aytmagan donishmandlarimizdan biri. Darhaqiqat, inson qadr topishi uchun avvalambor uning odobi, bilimi va kasb-hunari asos bo‘ladi. Bolalarga o‘z kasb-hunarlari sirlarini o‘r-gatib, kelajakda hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, tanlashlari mumkin bo‘lgan kasblar uchun payde-ovor bo‘ladigan ta‘lim-tarbiya berib, hunar o‘rgata-yotgan “Farhod” MS ga qarashli “Bolalar ijodiyot markazi” xodimlariga doimo shogirdlari ardog‘ida bo‘lib, ularning ijodlaridan zavq olib yashash bax-tini tilab qolamiz.

to‘garak rahbari bilan meni bu yerga yetaklab kelgan masala – eksponatlar restavratsiyasi xususida suhbatlashdik. Ijodiyot markazi mudiri Akmal Turdiyev ham, u kishi rahbarligi ostida mehnat qilayotgan Shavkat Valiyev kabi mutaxassislar ham muzeyda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarga mas‘uliyat bilan yondashishlari, yordam so‘raganimizda beminnat xizmatlarini ayashmagani qu-vontiradi.

Odarning qiymati emas simu-zar,
Insonning ziyinati kasb ila hunar
deb bejizga aytmagan donishmandlarimizdan biri. Darhaqiqat, inson qadr topishi uchun avvalambor uning odobi, bilimi va kasb-hunari asos bo‘ladi. Bolalarga o‘z kasb-hunarlari sirlarini o‘r-gatib, kelajakda hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, tanlashlari mumkin bo‘lgan kasblar uchun payde-ovor bo‘ladigan ta‘lim-tarbiya berib, hunar o‘rgata-yotgan “Farhod” MS ga qarashli “Bolalar ijodiyot markazi” xodimlariga doimo shogirdlari ardog‘ida bo‘lib, ularning ijodlaridan zavq olib yashash bax-tini tilab qolamiz.

to‘garak rahbari bilan meni bu yerga yetaklab kelgan masala – eksponatlar restavratsiyasi xususida suhbatlashdik. Ijodiyot markazi mudiri Akmal Turdiyev ham, u kishi rahbarligi ostida mehnat qilayotgan Shavkat Valiyev kabi mutaxassislar ham muzeyda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarga mas‘uliyat bilan yondashishlari, yordam so‘raganimizda beminnat xizmatlarini ayashmagani qu-vontiradi.

Odarning qiymati emas simu-zar,
Insonning ziyinati kasb ila hunar
deb bejizga aytmagan donishmandlarimizdan biri. Darhaqiqat, inson qadr topishi uchun avvalambor uning odobi, bilimi va kasb-hunari asos bo‘ladi. Bolalarga o‘z kasb-hunarlari sirlarini o‘r-gatib, kelajakda hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, tanlashlari mumkin bo‘lgan kasblar uchun payde-ovor bo‘ladigan ta‘lim-tarbiya berib, hunar o‘rgata-yotgan “Farhod” MS ga qarashli “Bolalar ijodiyot markazi” xodimlariga doimo shogirdlari ardog‘ida bo‘lib, ularning ijodlaridan zavq olib yashash bax-tini tilab qolamiz.

to‘garak rahbari bilan meni bu yerga yetaklab kelgan masala – eksponatlar restavratsiyasi xususida suhbatlashdik. Ijodiyot markazi mudiri Akmal Turdiyev ham, u kishi rahbarligi ostida mehnat qilayotgan Shavkat Valiyev kabi mutaxassislar ham muzeyda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarga mas‘uliyat bilan yondashishlari, yordam so‘raganimizda beminnat xizmatlarini ayashmagani qu-vontiradi.

Odarning qiymati emas simu-zar,
Insonning ziyinati kasb ila hunar
deb bejizga aytmagan donishmandlarimizdan biri. Darhaqiqat, inson qadr topishi uchun avvalambor uning odobi, bilimi va kasb-hunari asos bo‘ladi. Bolalarga o‘z kasb-hunarlari sirlarini o‘r-gatib, kelajakda hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, tanlashlari mumkin bo‘lgan kasblar uchun payde-ovor bo‘ladigan ta‘lim-tarbiya berib, hunar o‘rgata-yotgan “Farhod” MS ga qarashli “Bolalar ijodiyot markazi” xodimlariga doimo shogirdlari ardog‘ida bo‘lib, ularning ijodlaridan zavq olib yashash bax-tini tilab qolamiz.

to‘garak rahbari bilan meni bu yerga yetaklab kelgan masala – eksponatlar restavratsiyasi xususida suhbatlashdik. Ijodiyot markazi mudiri Akmal Turdiyev ham, u kishi rahbarligi ostida mehnat qilayotgan Shavkat Valiyev kabi mutaxassislar ham muzeyda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarga mas‘uliyat bilan yondashishlari, yordam so‘raganimizda beminnat xizmatlarini ayashmagani qu-vontiradi.

Odarning qiymati emas simu-zar,
Insonning ziyinati kasb ila hunar
deb bejizga aytmagan donishmandlarimizdan biri. Darhaqiqat, inson qadr topishi uchun avvalambor uning odobi, bilimi va kasb-hunari asos bo‘ladi. Bolalarga o‘z kasb-hunarlari sirlarini o‘r-gatib, kelajakda hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, tanlashlari mumkin bo‘lgan kasblar uchun payde-ovor bo‘ladigan ta‘lim-tarbiya berib, hunar o‘rgata-yotgan “Farhod” MS ga qarashli “Bolalar ijodiyot markazi” xodimlariga doimo shogirdlari ardog‘ida bo‘lib, ularning ijodlaridan zavq olib yashash bax-tini tilab qolamiz.

to‘garak rahbari bilan meni bu yerga yetaklab kelgan masala – eksponatlar restavratsiyasi xususida suhbatlashdik. Ijodiyot markazi mudiri Akmal Turdiyev ham, u kishi rahbarligi ostida mehnat qilayotgan Shavkat Valiyev kabi mutaxassislar ham muzeyda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarga mas‘uliyat bilan yondashishlari, yordam so‘raganimizda beminnat xizmatlarini ayashmagani qu-vontiradi.

Odarning qiymati emas simu-zar,
Insonning ziyinati kasb ila hunar
deb bejizga aytmagan donishmandlarimizdan biri. Darhaqiqat, inson qadr topishi uchun avvalambor uning odobi, bilimi va kasb-hunari asos bo‘ladi. Bolalarga o‘z kasb-hunarlari sirlarini o‘r-gatib, kelajakda hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, tanlashlari mumkin bo‘lgan kasblar uchun payde-ovor bo‘ladigan ta‘lim-tarbiya berib, hunar o‘rgata-yotgan “Farhod” MS ga qarashli “Bolalar ijodiyot markazi” xodimlariga doimo shogirdlari ardog‘ida bo‘lib, ularning ijodlaridan zavq olib yashash bax-tini tilab qolamiz.

to‘garak rahbari bilan meni bu yerga yetaklab kelgan masala – eksponatlar restavratsiyasi xususida suhbatlashdik. Ijodiyot markazi mudiri Akmal Turdiyev ham, u kishi rahbarligi ostida mehnat qilayotgan Shavkat Valiyev kabi mutaxassislar ham muzeyda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarga mas‘uliyat bilan yondashishlari, yordam so‘raganimizda beminnat xizmatlarini ayashmagani qu-vontiradi.

Odarning qiymati emas simu-zar,
Insonning ziyinati kasb ila hunar
deb bejizga aytmagan donishmandlarimizdan biri. Darhaqiqat, inson qadr topishi uchun avvalambor uning odobi, bilimi va kasb-hunari asos bo‘ladi. Bolalarga o‘z kasb-hunarlari sirlarini o‘r-gatib, kelajakda hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, tanlashlari mumkin bo‘lgan kasblar uchun payde-ovor bo‘ladigan ta‘lim-tarbiya berib, hunar o‘rgata-yotgan “Farhod” MS ga qarashli “Bolalar ijodiyot markazi” xodimlariga doimo shogirdlari ardog‘ida bo‘lib, ularning ijodlaridan zavq olib yashash bax-tini tilab qolamiz.

to‘garak rahbari bilan meni bu yerga yetaklab kelgan masala – eksponatlar restavratsiyasi xususida suhbatlashdik. Ijodiyot markazi mudiri Akmal Turdiyev ham, u kishi rahbarligi ostida mehnat qilayotgan Shavkat Valiyev kabi mutaxassislar ham muzeyda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarga mas‘uliyat bilan yondashishlari, yordam so‘raganimizda beminnat xizmatlarini ayashmagani qu-vontiradi.

■ Tibbiyot

ZAMONAVIY AMALIYOTLAR
SAMARASI

Aholi salomatligi va tibbiyot rivoji jamiyat farovonligining nishonasidir. Tibbiyot rivoji oftalmologiyada ham o‘z ifodasini topmoqda. Ko‘zlar insonning eng muhim organi bo‘lib, ko‘z kasalliklari ko‘rish qobiliyatiga salbiy ta’sir qiladi va hayot sifatini pasaytiradi.

Bugungi kunda aholiga oftalmologiya sohasida ko‘rsatilayotgan tibbiy-profilaktika yordami sifatini yaxshilash, oftalmologik kasalliklarning oldini olish va profilaktika qilish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. “NKMK jamg‘armasi” DM Tibbiy-sanitariya bo‘limida oftalmologiya sohasini takomillash-tirishga katta e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bo‘lim zarur jihozlar bilan ta‘minlangan. Unda glaukoma, keksalik makulodistrofiyasi, diabetik retinopatiya, to‘r parda ko‘chishi kabi kasalliklar profilaktikasi amalga oshirilmoqda. Bu amaliyotlarning barchasi, ya’ni diagnostika va jarrohlik amaliyotlari oftalmolog vrachlar tomonidan bajarilayapti. Bo‘limda diagnostika jarayonida bemorlik alomatlari baholanib, zarur bo‘lganda ilg‘or tasvirlash usullaridan foydalanilmoqda. Ba’zi kasalliklar uchun maxsus testlar ham o‘tkazilayapti.

Fakoemulsifikatsiya – boshqacha aytganda ultratovush yordamida kataraktani mikrojarrohlik yo‘li bilan olib tashlash bemorlarda ko‘rishni tiklashning zamonaviy, past shikastli va eng ishonchli usuli hisoblanadi. Jarrohlik paytida vrach barcha manipulyatsiyalarni 2,5 millimetrgacha bo‘lgan mikro kesma orqali amalga oshiradi. Kesmaning kichik o‘lchami tikuvlarni talab qilmaydi, bu, jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlar xav-fini sezilarli darajada kamaytirib, maksimal ko‘rish qobiliyatini tiklaydi. Jarrohlik amaliyoti ko‘z olmasini ukol bilan og‘riqsiz-lantirish ostida amalga oshiriladi, umumiy anesteziya talab etilmaydi. Bunday amaliyot bo‘limda muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. 2023-yil oktabr oyida NKMK tomonidan bo‘limga Germaniya davlatida ishlab chiqarilgan, eng zamo-naviy va ko‘p funksiyali “Megatron” fakoemulsifikator-jarrohlik



apparati olib berildi. Ultratovush besh xil usulda ishlatiladigan bu apparat 500 mingga yaqin amaliyotlarni xotirasida saqlaydi, samaradorligi juda yuqori. Unda nafaqat ko‘zning oldingi qismida, balki ko‘z tubida ham amaliyotlarni o‘tkazish funk-siyasi mavjud. Apparatdan foydalanish muddati 15 yil bo‘lib, apparatga uni taqdim etgan kompaniya tomonidan 10 yil pro-filaktik va texnik xizmatlar ko‘rsatiladi. Bu apparat yordamida hozirgi kunga qadar besh yuzdan ortiq jarrohlik amaliyoti ba-jariladi. Tibbiy jihoz ishga tushirilgan kundan buyon bemorlar-ga 30 million so‘mlik pullik xizmatlar ko‘rsatildi. Bo‘limda ko‘z kasalliklari jarrohlik amaliyoti uchun zamonaviy tibbiy jihozlar va usullardan foydalanish ijobiy samara bermoqda.

Ko‘z kasalliklarining oldini olish, profilaktikasini kuchay-tirish inson salomatligi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ko‘zlarni muntazam tekshiruvdan o‘tkazish va biror bir kasallik alomati paydo bo‘lsa, tezda shifokorga muro-jaat qilish zarur.

A.AXMEDOVA

Gripp – o‘tkir yuqumli virusli kasallik bo‘lib, tana haroratining ko‘tarilishi va yuqori nafas yo‘llarining o‘tkir yallig‘lanishi bilan kechadi. Bu xastalikning ko‘payishi asosan kuz, qish, bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Gripp bilan barcha yoshdagi kishilar xastalanishi mumkin. Ayniqsa, xastalik nimjon bolalar, keksa yoshdagi kishilar, homilador ayollar, surunkali xastalıkları bor bemorlar, shuningdek, tamaki chekuvchilarga tez yuqadi va ularda og‘ir o‘tib, ko‘pgina noxush asoratlarga olib kelishi mumkin.

GRIPP KASALLIGIDAN
SAQLANING!

Havo haroratining pasayishi, yuqori nafas yo‘llarining yallig‘lanish kasal-liklarining ko‘pligi, tanada vitaminlar tanqisligi, xonadonlarda oila a‘zolarining zich yashashi holatlari kasallikning yuqish yo‘llari hamda uni keltirib chiqaruv-chi omillar sanaladi. Gripp bemordan sog‘lom odamga havotomchi yo‘li bilan yuqadi. Gapirganda, yo‘talganda yoki aksirganda virus havoga chiqadi va shu havodan nafas olgan kishi kasallikka chalinishi mumkin. Shuningdek, kasallik bemor ishlatgan ro‘molcha, sochiq va o‘yinchoqlar orqali ham yuqishi mumkin. Gripp tana haroratining ko‘tarilishi, bosh, qo‘l va oyoq mushaklarida og‘riq pay-do bo‘lishi bilan boshlanib, et uvishishi, ko‘zning yoshlanishi, burundan suyuq-lik kelishi, tomoq og‘rig‘i, quruq yo‘tal, ishtahasizlik, quvvatsizlik kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi.

Xastalikning dastlabki alomatlari kuzatilganda va keyin ham uy sharoitida suyuqliklar (malina, limon va asal qo‘shilgan choy, issiq sut hamda na‘matak damlamasi)ni ichish tavsiya etiladi. Tana harorati yuqori hamda xastalikning boshqa belgilari paydo bo‘lganda, darhol shifokorga murojaat etish, uning tavsiyasiga ko‘ra tegishli davo muolajalarini olish kerak. Kasallikka chalinmaslik uchun uyda, o‘qishda, ishda yoki atrofda shu kasallik bilan og‘riqan bemor-lar bo‘lganda 4-6 qavatli dokandan tikilgan niqobdan foydalanish, ochiq havoda sayr qilish, xonalarni vaqti-vaqti bilan shamollatib turish, isiriq tutatish, ba-dantarbiya bilan muntazam shug‘ullanish, to‘g‘ri va sifatlil ovqatlanish, meva va sabzavotlarni ko‘p iste‘mol qilish tavsiya etiladi. Eng muhimi, gripp kasalligiga qarshi vaktsina bilan emlashdir.

O‘zboshimchalik bilan har xil dori vositalari, jumladan, antibiotiklarni qabul qilmang! O‘z salomatligingizga befarq bo‘lmang!

Ruxshona OCHILOVA,
“NKMK jamg‘armasi” DM
TSB SENM epidemiolog vrachi.

■ Bilib qo‘ygan yaxshi

ANORNING
SHIFOBAXSH
JIHATLARI

Organizmi tozalaydi. Anorni iste‘mol qilish qon bosimini me‘yorga keltiradi, jigarni tozalaydi, ortiqcha suyuqlikni organizmdan chiqaradi.

Gijadan xalos qiladi. Quritilgan anor po‘stlo-g‘i qaynatiladi va bir hafta davomida ertalab och qoringa ichiladi. Bu amaliyot bilan gijalardan xoli bo‘lasiz.

Asabiylikning oldini oladi. Hayot tashvishlari bilan bo‘lib halovatsizlik, yurak siqilishi, asabiylik va tez kayfiyat o‘zgarishidan aziyat cheksangiz, anor po‘stini yarim litr suvda qaynatib ichish foy-dalidir. Turli yallig‘lanishlar, jigar xastalıklarida ham ichilishi samara beradi.

Immunitetni ko‘taradi. Kuz-qish mavsumini gripp va shamollashlarsiz o‘tkazmoqchi bo‘lsa-ngiz, har kuni bir necha 10 dona anor iste‘mol qi-lishni odat qiling. Anor S vitaminiga boyligi sabab shamollashda yordam beradi. Anorni turli salatlarga qo‘shib tanovul qilish ham mumkin. Qon aylani-shini yaxshilaydi, ichaklarni tozalab, yuz ko‘rinishi-gizni tiniqlashtiradi.

Suyaklarni mustahkamlaydi. Yoshi ulug‘ in-sonlar kunora anor yeb turishlari shart. Negaki, tarkibidagi kalsiy kattalarda uchraydigan osteo-xondrozga qarshi kurashadi. Anor sharbati ichil-ganda insult va infarkt xavfi kamayadi. U xotirani mustahkamlaydi. Vazn tashlashda ham yordam beradi.

Anorni me‘yoridan ko‘p iste‘mol qilish ham mumkin emas. Anor tarkibidagi moddalar tish emalini yemirishi mumkin. Anor yeb bo‘lgach, og‘izni issiq suvda chayish tavsiya qilinadi. Anorni ko‘p yeyish qabziyatga ham sabab bo‘ladi.

■ “101” ogohlantiradi

IS
GAZIDAN
EHTIYOT
BO‘LING!

Havo haroratining keskin o‘zgarishi, kunlar-nig sovishi issiqlik ta‘minoti - isitish jihozlariga bo‘lgan ehtiyojimizni oshiradi. Kuz-qish mavsumi-da isitish manbalaridan noto‘g‘ri foydalanish sa-babli is gazi bilan bog‘liq ko‘ngilsiz hodisalar, eng achinarlisi, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelib, insonlar qurbon bo‘lishi mumkin. Ob-havo keskin sovgan kunlarda sodir bo‘layotgan favqulodda vaziyatlarning aksariyati is gazidan zaharlanish holati bilan bog‘liq. Ushbu zaharli gaz xonadon-larimizda foydalaniladigan tabiiy va suyuqlirilgan gaz, ko‘mir, o‘tin va boshqa shu kabi yoqilg‘i man-balarining to‘liq yonmasligi natijasida paydo bo‘-ladi. Is gazi rangsiz va hisdsiz bo‘lib, nafas yo‘lla-ri orqali qonga so‘rilganda organizmni, xususan, markaziy asab tizimini jiddiy zararlashi bilan xavf-li. Shu bois, is gazidan zaharlanib, vafot etish ehtimoli yuqori. Olib borilgan tahliklarga ko‘ra, is ga-zidan zaharlanish holatlari ko‘p xonali uylardagi xonadonlarni isitishda gaz plitasidan foydalanish-da, aholi xonadonlarida esa pechlar mo‘rilarining o‘z vaqtida tozalanmasligi, tutun yo‘llarining yo-pib qo‘yilishi, chet ellarda ishlab chiqarilgan isit-ish pechlari, nstandart va qo‘lbola isitish vosita-laridan noto‘g‘ri foydalanish, uyni isitishda ochiq holdagi ko‘mir va o‘tin cho‘g‘laridan foydalanish oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Is gazidan zaharlanishning oldini olish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi.

Gaz yoki boshqa muqobil yoqilg‘iga moslashti-rilgan isitish pechlari hamda suyuqlirilgan uglevod-dorod gaz ballonlarini dam olish xonalariga olib kirmaslik;

Oshxonada o‘rnatilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz plitalardan xonalarni isitish maqsadida foyda-lanmaslik;

Havo almashmaydigan xonalarni isitishda ochiq olov (ko‘mir va o‘tin cho‘g‘lar)dan foydalan-maslik;

Havoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuyuklarni ochiq va ishchi holatda bo‘lishini ta‘minlash;

Xonadonlarga is gazini aniqlovchi qurilma o‘r-natish tavsiya qilinadi. Zero, qurilmani sotib olish va o‘rnatish xarajatlari oila a‘zolari, ayniqsa, yosh bolalarning hayotidan qimmatga tushmasligi aniq.

Gaz ballonlarini issiqlik manbaiga yaqin joyda qoldirmaslik lozim. Agarda binoda gaz hidi sezil-sa, oyna va eshiklarni zudlik bilan ochish, ko‘-chaga chiqish va 104 raqami orqali gaz xo‘jaligi avariya – dispatcherlik xizmati yoki 1050 raqami bo‘yicha qutqaruv xizmatiga qo‘ng‘iroq qilish ke-rak. Bunday holatlarda chiroq, olov yoqish, elektr uskunalarini ishga tushirish talab qilinadi.

Bahriiddin BAHRONOV,
“Markaz”KB OYOXTTEB P va NB katta inspektori,
Alisher XUSHVAQTOV, Samad ARSLONOV,
bo‘lim inspektorlari.